

Hindistonga sayohat qilayotgan yo'lovchilar diqqatiga!

2026 26 Iyun

Hindistonga sayohat qilyapsizmi? Mamlakatga kirish qoidalari haqida foydali ma'lumotlar

Hindiston yo'nalishlar tarmog'imizdagi eng yorqin va talabgir yo'nalishlardan biridir. Aeroportdagi rasmiyatchiliklardan tez va qulay o'tishingiz uchun Uzbekistan Airways aviakompaniyasi mamlakat aviatsiya va sanitariya idoralarining amaldagi talablarini eslatib o'tadi.

Hindistonga hech qanday to'siqlarsiz kirish uchun barcha xalqaro aviaqatnovlar yo'lovchilariga quyidagi elektron hujjatlarni oldindan rasmiylashtirishni tavsiya qilamiz:

1. India Digital Arrival Card (Elektron kelish kartasi): hujjat parvozning rejalashtirilgan vaqtiga 72 soatdan 24 soatgacha bo'lgan vaqt oralig'ida onlayn tarzda to'ldiriladi. Kartani indianvisaonline.gov.in rasmiy portali orqali rasmiylashtirishingiz mumkin.
2. Salomatlik deklaratsiyasi (Air Suvidha Self Declaration Form): yetib kelishdan kamida 24 soat oldin airsuvidha.civilaviation.gov.in portali orqali to'ldiriladi. Shaklda sog'lig'ingiz holati, ehtimoliy kontaktlar va so'nggi 21 kun ichida tashrif buyurgan mamlakatlar to'g'risidagi standart ma'lumotlarni ko'rsatish zarur.

So'rovnomalar muvaffaqiyatli to'ldirilgandan so'ng, olingan tasdiqnomalarni mobil qurilmangizga saqlab qo'yishingiz yoki qog'ozga chop etishingizni tavsiya qilamiz, chunki ular manzilda immigratsiya xizmati yoki sanitariya nazorati xodimlari

tomonidan talab qilinishi mumkin.

Ushbu oddiy qadamlarni oldindan bajarish aeroportda ortiqcha kutishning oldini olishga va sayohatingizni faqat ijobiy his-tuyg'ular bilan boshlashga yordam beradi.

Aviakompaniyamizni tanlaganingiz uchun minnatdorchilik bildiramiz va yoqimli sayohat tilaymiz!